

“O‘zbekfilm” kinokonsernid institutning ikkita kafedras filiallarrining tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi

Bugun “O‘zbekfilm” kinokonsernid O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” hamda “Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedralari filiallarrining tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Kinematografiya agentligi Bosh direktori, „Do‘stlik“ ordeni sohibi, „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi“ Shuxratilla Rizayev, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, O‘zbekfilm” kinokonserni direktori Baxodir Muxamedov, shuningdek, taniqli kino rejissyorlar, operatorlar, talabalar hamda OAV vakillari ishtirok etdilar.



– Bugungi hamkorlik O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat

instituti hamda Kinematografiya uchun muhim qadamdir. Institutning ushbu kafedralar filiallarini tashkil qilinishi, milliy kino san'atimizda yangi kadrlarni kashf etishda yana bir muhim qadamlardan biri bo'lmoqda, deydi- Shuxratilla Rizayev.



Shuningdek, u o'z so'zida "DUAL" ta'limning yo'lga qo'yilishi, bunday hamkorlik kinematografiyaning yangi avlodini shakllantirish sari olib borilayotgan oqilona say-harakatlardan ekanini aytdi. Bu loyiha ilm-fan, ijod va texnologiyani birlashtirishga, xalqaro talab darajasida mutahassis kadrlar tayyorlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

Rektor Nodirbek Sayfullayev so'nggi yillarda institutda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning ta'lim sifati va ijodiy jarayonga bo'lgan ijobiy ta'siri haqida so'z yuritarkan, jumladan shunday dedi:

–Bizning asosiy maqsadimiz – talabalarga nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni bevosita sahna, ekran va madaniyat muassasalarida amaliy faoliyatga jalb etishdir ya'ni ishlab

chiqarish bilan ta'lim integratsiyasi uyg'unligini ta'minlash. Bugun "O'zbekfilm" kinokonsernida ikki yangi kafedra filialining ochilishi— shu yo'nalishdagi say-harakatlarimizning mantiqiy davomidir.



Shuningdek, u mazkur tashabbus yosh mutaxassislarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish, milliy kino va teatr san'atini yangi bosqichga olib chiqish imkonini berishini ta'kidladi.

Rektor yangi filiallar faoliyatiga muvaffaqiyat tilab, bu ishlar avvalohurmatli Yurtboshimiz tomonidan boshqa sohalarqatorida ta'limga, shuningdek, san'at va madaniyatga qaratayotgan muhim e'tibori natijasi ekanligini alohida ta'kidladi.



Baxodir Muxamedov tadbir davomida soʻzga chiqib, “Oʻzbekfilm” kinokonserni negizida ochilgan kafedra filiallari yosh ijodkorlar uchun beqiyos imkoniyatlar eshigini ochishi, talabalar endilikda oʻz bilimlarini amaliyot jarayonida, haqiqiy ijodiy muhitda mustahkamlashini aytib oʻtdi. Uning taʼkidlashicha bu hamkorlik kelajakda milliy kinomiz taraqqiyoti uchun yangi avlod professional mutaxassislarini yetishtirishda muhim oʻrin tutadi.



Shundan so'ng ishtirokchilar "O'zbekfilm" kinokonsernida kafedra filiali uchun tashkil etilgan xona bilan tanishdilar. Bu yerda bo'lib o'tgan uchrashuv davomida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Abdurahim Ismoilov, taniqli

kinorejissyorlar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Jahongir Qosimov hamda Hilol Nasimov, kinoshunos, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent Oybek Kopadze, oliy toifali operator Azizbek Arzikulovlar mazkur tashabbusni qo'llab-quvvatlashar ekan, bu boradagi samimiya fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Ikki ijodiy tashkilot ishlariga muvaffaqiyatlar tilashdi.





Qizg'in kechgan ijodiy suhbatlar so'ngida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va "O'zbekfilm" kinokonserni o'rtasida memorandum imzolandi.

Moskva viloyatida «O'zbekiston va Rossiya hamkorligining madaniy- gumanitar qirrasini» panel sessiyasi bo'lib o'tdi

21- 23 oktabr kunlari Moskva viloyatida o'tkazilgan O'zbekiston va Rossiya hududlararo kengashining II-yig'ilishi

tadbirlari doirasida «O'zbekiston va Rossiya hamkorligining madaniy- gumanitar qirrasini» panel sessiyasi bo'lib o'tdi.



Unda Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avazxon Tadjixanov rahbarlagidagi delegatsiya tarkibida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etdi.



Rektor sessiyada «Madaniy ta'lim sohadagi O'zbekiston va Rossiya aloqalarining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari» mavzusida ma'ruza qildi.
Safar davomida Rossiya Federatsiyasi madaniyat vaziri

o'rinbosari Andrey Malishev va Rossiya teatr san'ati instituti – GITIS rektori Grigoriy Zaslavskiy bilan uchrashuv o'tkazildi.



Shuningdek, Moskva shahrida joylashgan G'alaba muzeyi hamda VDNXning «O'zbekiston» paviloni ekspozitsiyalari bilan tanishildi.

“Jaholatga qarshi – ma’rifat bilan kurash” mavzusida davra

suhbati tashkil etildi

Sir emaski bugungi kunda yoshlar mislsiz hajmdagi ma'lumotlar oqimiga duch kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ularga turli xil fikrlar, g'oyalar va qarashlar yetkazilmoqda. Afsuski, ushbu axborotlar orasida jamiyatimiz mentalitetiga yot bo'lgan, zararli va hatto yoshlar ongiga tahdid solishi mumkin bo'lgan g'oyalar ham uchraydi.

Shu bois yoshlarni turli buzg'unchi oqimlar va yot mafkuralardan asrash, ularni to'g'ri yo'lga yetaklash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



Ana shunday dolzarb masalalar yuzasidan bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Jaholatga qarshi – ma'rifat bilan kurash" mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti Mirodil Haydarov, Ijtimoiy-ma'naviy muhit

barqarorligini ta'minlash bo'yicha rektor maslahatchisi Alisher Ischanov hamda Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Jahongir Karimovlar ishtirok etdi.



Uchrashuv davomida Mirodil Haydarov bugungi axborot texnologiyalari yuksak sur'atlarda rivojlanayotgan bir davrda axborotni saralash madaniyati, yolg'on va soxta xabarlarni aniqlash, ularni ishonchli manbalardan tekshirish kabi masalalar haqida atroflicha fikr yuritdi.

U ta'kidlaganidek, ayniqsa diniy ma'lumotlarni olishda har bir yosh rasmiy va ishonchli sahifalarga murojaat qilishi zarur. Zero, noto'g'ri manbadan olingan birgina ma'lumot ham inson tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Suhbat davomida talabalarning qiziqtirgan savollariga batafsil javoblar berildi.



Tadbir yoshlar ongida ma'rifat, tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi.